

XORIJIY TILLARNI O'RGATISHDAGI METODLARDA PSIXOLINGVISTIK JARAYON

Abdug'aniyeva Mushtariy Muzaffarjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti, talaba.

E.mail: abduganiyevamushtariy23@gmail.com

Kurbanov Elbek Elmurodovich

Andijon davlat chet tillar instituti, f.f.f.d., (Phd) dotsent

Anotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion metodlardagi psixolingvistik jarayonlar xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, bugungi kundagi ta'lim jarayonida, xususan ona tilimiz yoki ingliz tilini yoki boshqa xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha turli qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalar mazmuni haqida ham mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: brainstorming, zamonaviy texnologiyalar, xorijiy tajriba, metod, psixolingvistika, o'quvchi, pedagog, lingvistika, videotopishmoq, o'qituvchi, aqliy hujum, ta'lim, o'zbek tili

Asosiy qism: Mamlakatimiz ta'lim tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning zahirida ta'lim tizimini mazmunan yangilash, axborotlar globallashtirgan bir davrda mazkur ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan o'qituvchi hamda professor-o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiyalash, mazkur jarayonga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va bu borada xorijiy tajribalaridan samarali foydalanish kabi muhim vazifalarni qamrab olgan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda bugungi kun pedagog zimmasiga ta'lim-tarbiya mazmuniga bog'liq innovatsion ta'lim texnologiyalarini tanlash, mashg'ulotlar ishlanmalari va texnologik xaritalarni loyihalash, ularda belgilangan o'quv maqsadlarini amalga qo'llay olish, o'quvchining psixologik va lingvistik xususiyatlariga, asosan o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limda psixolingvistik jarayonni tashkil eta olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bu borada o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan baravar rivojlantirib borishda bevosita "psixolingvistika" ni ahamiyatini va rolini alohida ta'kidlagan bo'lardik. Zero, xorijiy tillar yoki xorijiytlar uchun o'zbek tili bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining mazmunidan kelib chiqqan holda psixolingvistikaga asosan o'quv maqsadlarini aniqlash va shu asosda mashg'ulotlarni tashkil etish - o'quvchilarning mavzu maqsadidan kelib chiqib, rejalashtirilgan natijaga to'laqonli erishishlarini samarali ta'minlaydi, desak xato qilmagan bo'lamiz.

Chunki, o'quv maqsadlarini mashg'ulotning psixolingvistik maqsadlariga muvofiq belgilanishi ta'lim samaradorligini aniqlash va mavjud kamchiliklarga barham berilishiga zamin tayyorlaydi.

O'quvchilarga Ingliz tillini o'rganish mobaynida funksional nutqini o'stirish uchun qo'shimcha manbalardan samarali foydalanish kerak, hamda yordamchi o'quv vositalari ko'magida ularning xorijiy tilga qiziqish va munosabatini yanada yuksaltirish, har bir mashg'ulotni interaktiv usullarida olib borish, mashg'ulotdan so'ng ularga qo'shimcha murakkab bo'lmagan mashg'ulotlar berish va bu jarayonda noodatiy uslublardan foydalanish muhim ro'l o'ynaydi.

Psixolingvistik metodlar o'z ichiga bilish, tushunish, amaliyotga qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, baholash, xorijiy tillarda gapirish ko'nikmalari kabilarni o'z ichiga oladi.

Xorijiy tillarni o'rganayotgan o'quvchiga funksional nutqni rivojlantirishda psixolingvistik innovatsion texnologiyaning muayyan usullaridan foydalanish muhim bo'lib, brain storming, method, cluster, zigzag, project, case kabi turlarini qo'llash katta natija beradi.

Og'zaki nutq mashg'ulotlarini o'tkazishdan maqsad o'quvchilar yodidan ko'tarilgan so'z, ibora, namunalarni esga tushirish, chet tilini tinglash, gapirish uchun nutq organlarini tayyorlashdan iboratdir. Xususan, biror bir rasmni ko'rsatib, nimani ko'rayotgani va rasmda kimlar borligini so'rash, ushbu vaziyat haqida qisqa esse yozish, shaxsiy pozitsiyasi va fikrini bildirish orqali og'zaki nutq shakllana boradi. Ayrim mashqlar og'zaki nutqda chet tillarda gapirishdan boshlansa, o'quvchilar dars davomida o'sha muhitda bo'ladilar. Bu psixolingvistik jarayonda, albatta, asta-sekinlik bilan tinglab tushunish, gapirish qobiliyati rivojlanib boradi.

Quyida esa chet tilini o'qitishda amaliyotda qo'llanilayotgan va o'zining ijobiy natijalarini berayotgan innovatsion ta'lim texnologiyalarida psixolingvistik jarayonlarni ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Zamonaviy pedagogikaning "Work in groups" turi orqali mashg'ulotda qatnashayotgan o'quvchilar uch guruhga bo'linadi. O'quvchilarga ingliz tilidagi qisqa metrajli film namoyish etiladi. Birinchi guruhga, ushbu film yuzasidan savollar tuzish vazifasi, ikkinchi guruhga film mazmunini gapirib berish, uchinchi guruhga esa, film mazmun-mohiyati haqida esse yozish vazifasi beriladi. Shuningdek, guruhlariga biror bir voqea yoki hodisa aks ettirilgan rasm tarqatiladi. Guruh a'zolariga bir xilda, ya'ni "What do you think?" savoli beriladi. Mazkur savolga javob berish orqali o'quvchilarda bir vaqtning o'zida ingliz tilida fikrlash, so'zlash va shaxsiy fikr bildirish qobiliyati, shuningdek vaziyatni turlicha baholash hamda ifodalash tuyg'usi rivojlanadi.

Zamonaviy texnologiyalarda psixolingvistikadan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil

qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriyl yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Bu metod orqali o'quvchini o'rganayotgan til muhitiga olib kiriladi va o'quvchini o'rganayotgan tilga bo'lgan munosabati o'rganiladi.

"Brain storming" ya'ni "Aqliy hujum" biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr-mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. "Aqliy hujum" metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Bu bilan o'quvchini psixik va lingvistik fikr g'oyalari o'stirilib boriladi. Og'zaki shaklida o'quvchilarga savol beriladi va og'zaki javob olinadi. O'quvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga o'quvchilar o'z javoblarini qog'oz varaqcha (kartochka)lariga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. O'quvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi o'quvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi.

"Aqliy hujum" metodi o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi, ya'ni:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzusiga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda, yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda, mavzudan so'ng darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

"Aqliy hujum" metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

- bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi;
- bildirilgan har qanday fikr-g'oya, u hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi;
- jarayonda har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart

«Aqliy hujum» metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati ortadi;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

Bu metod bilan o'quvchilar psixikasi hamda lingvistik fikr-g'oyalari shakllanib boradi va har bir o'quvchi bilan alohida ishlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning quyida keltirilgan metodlardan psixolingvistik asosida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishda interfaol usullardan foydalanish yanada ularni ijodiy ishlash, mustaqil fikrlash va o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatlarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Psixolingvistik metod jarayonlarida asosiy o'quv maqsadi o'rganilgan mavzu bo'yicha xulosa yasashga qaratiladi. Bunda o'quvchi mavzu mazmunini baholashi, u bo'yicha tanqidiy fikr yuritishi, fikrga qarshi fikr bildirishi, muayyan fikrlarni qo'llab quvvatlay olishi, zarur holda ularni inkor qila olishi talab etiladi. Mazkur kreativ darajani ta'minlashda psixolingvistik jarayon muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim jarayonida metodlarga psixolingvistik yondashish o'quv maqsadlarining aniqlanishi, o'quvchilarning o'quv maqsadlariga erishish darajasini nazorat qilish va baholashda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 5. Fayzullyeva M.M., Nutq rivojlantirish psixolingvistik ta'limiy asoslari. // Journal of New Century Innovations. Volume-30, Issue-3, Iyun-2023 www.newjournal.org
2. Solievich, T. N. (2022). Specific aspects of improving the quality of education in higher education institutions. *ACADEMICIA: An International Mulidisciplinary Research Journal*, 12(9), 31-34.
3. Rakhmanberdiyeva, K. S. (2022). FORMATION OF INDEPENDENT EDUCATION IN STUDENTS. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 328-330.
4. Балашов, С. В., Вернер, И. В., & Бышевский, В. И. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДИК ИНТЕРАКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ
5. H.Dadaboyev, Sh.Usmonova. Xorijiy sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2014
6. Bozorova Gulmira Tangriberdiyevna. (2021). TEACHING ENGLISH AS A MEANS OF COMMUNICATION. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer*

Reviewed Journal, 146–148. Retrieved from
<https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/15193>

7. <http://en.wikipedia.org/wiki/Psycholinguistics>
8. <http://www.utexas.edu/courses/linguistics/resources/psycholing>
9. <http://www.psycholinguisticsarena.com>
10. <http://www.nici.kun.nl/Divisions/d1/index.html>
11. <http://locutus.ucr.edu>
12. <http://www.ziyo-net.uz>
13. <http://www.kutubxona.uz>